

XITOY TARJIMA NAZARIYASINING ASOSCHISI – DUNG CHIUSI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336048>

Saydiganiyeva Saidaxon Saydinosirovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Xitoy filologiyasi” kafedrası

saydiganiyeva86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Xitoyda tarjimashunoslik nazariyasining vujudga kelishi, uning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asosiy omillar, tarjimashunoslikning maxsus fan sifatida shakllanishi hamda rivojlanishida tarjimashunos Dong Chiusi qarashlarining o'rni hamda mohiyati, Dong Chiusi “Xitoy tarjimashunosligi” atamasining asoschisi sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tarjimashunoslik qarashlari, tarjima nazariyasi, tarjima nazariyasining vujudga kelishi, tarjimashunos Dong Chiusi.

FOUNDER OF CHINESE TRANSLATION THEORY - DONG CHIUSI

Saydiganieva Saidaxon Saydinosirovna

Teacher

Department of “Chinese philology”

Tashkent State University of Oriental Studies

saydiganiyeva86@gmail.com

Abstract. This article discusses the origin of the theory of translation studies in China, the main factors that influenced it, the role and essence of the views of the translator Dong Chiusi in the formation and development of translation studies as a special science, and Dong Chiusi is considered as first person that created phrase “Chinese Translation theory”.

Keywords: translation views, theory of translation, emergence of translation science, Dong Chiusi.

Xitoy tarjimashunosligining yuzaga kelishi haqida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, uning yaratilishi jarayoni haqida gapiradigan bo'lsak, albatta uning yaratilish davriga to'xtalib o'tish kerak. Lekin bunday ko'rinishidan oddiy bo'lgan savolga javob berish, aslida onson emas, chunki bu savolga yagona fikr yo'q. Ko'pchilik qo'llab-quvatlagan qarashlardan asosan ikkitasini ko'rsatib o'tsak bo'ladi: birinchisi, 1951-yilda Dong Chiusi (董秋斯) nashr qilgan “Tarjima nazariyasining yaratilishi haqida munozara” (“论翻译理论的建设”) maqolasida aniq qilib “tarjima bu fan” ekanligini yozib, Xitoyda tarjimashunoslikning yaratilishiga chaqirgan; ikkinchisi, 1987-yilda Tan Zaisi (谭载喜) birinchi umumdavlat tarjima nazariyasi konferentsiyasida o'qigan “Tarjimashunoslik ilmi haqida” (试论翻译学) tezisidir. Birinchi qarash juda ko'p tarjimashunoslarning e'tirofini qozongan. [孔祥立 2009: 1] Tarjima sohasi haqida ko'pgina muhim fikrlarni, tarjimashunos olim Dong Chiusi bergan.

Dong Chiusi 1899-yilning Hebei viloyatining Jinghai uyezdida (hozirgi Tianjin shahri) tug'ilgan. Chiusi uning badiiy tahllusi bo'lib, asl ismi Dong Shaoming bo'lgan. 1926-yil Yanjing universitetini bitirgandan keyin Shimoliy yurishda ishtirok etgan. U Xitoyning mashhur badiiy asarlar tarjimoni, xitoy tarjimashunoslik fanining yuzaga kelishiga o'zining katta hissasini qo'shgan tarjimashunos olimdir. 1929-yil Xitoy Kommunistik partiyasining xorijiy matbuoti “Dunyo oylik gazetasi” (“世界月报”) da bosh muharrir bo'lib ishlagan paytida buyuk xitoy olimi, yozuvchisi,

tarjimashunosi Lusun (鲁迅) bilan tanishgan. Dong Chiusi 1930-yilda “Xalqaro” (“国际”) nomli oylik jurnalida bosh muharrir, “Tarjima habarlari” (“翻译通报”) gazetasida, “Tarjima” (“翻译”) nomli oylik jurnalida bosh muharrir, “Dunyo adabiyoti” (“世界文学”) bosh muharrir o‘rinbosari, Shanxay tarjimonlar uyushmasining raisi, Xitoy yozuvchilar uyushmasining badiiy muharriri lavozimlarida ishlab kelgan. Dong Chiusi ingliz tilini yaxshi bilgan, umrining 50 yilligi tarjimaga bag‘ishlagan bo‘lib, Sovet ittifoqi, Angliya, AQSh, Turkiya va boshqa 15 dan ko‘proq davlatlarning badiiy asarlarini ingliz tilidan xitoy tiliga tarjima qilgan.

Dong Chiusi 50-yillarda tarjimashunoslik sohasiga qo‘shgan eng katta hissasi, birinchilardan bo‘lib tarjima nazariyasining yaratilishi masalasiga katta urg‘u bergan, hamda Xitoyda tarjima tanqidini tashabbuskori va uni har tomonlama rivojlantirgan tarjimashunos olimdir. Yangi Xitoy yaratilishining birinchi kunidanoq 1949-yil 1-oktyabrida “Tarjima” (“翻译”) oylik jurnalining ikkinchi sonida nashr qilgan “Lusun va tarjima” (“鲁迅于翻译”) maqolasida quyidagi fikrlarni beradi:

“Umumiy olib qarakanda, janob Lusun hali bitta yagona bo‘lgan tarjima nazariyasi tizimini yaratmagan bo‘lsada, lekin uning bu sohoda o‘z amaliy tajribasi hamda qarashlari mavjud. Bularning barchasi nafaqat tarjimoni o‘rganuvchilar uchun ishonchli qo‘llanma, balki kelajakda tarjima nazariyasi yaratilishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib hizmat qiladi”. [陈福康 2002: 359-360]

1950-yil 1-iyulda asos solingan “Tarjima habarlari” (“翻译通报”) da nashr qilgan “Tarjima sohasidagi kamchiliklar haqida munozara” (“略谈翻译工作的缺点”) maqolasida Dong Chiusi, tarjima sohasida ishlayotgan hamda tarjima sohasini rivojlantirayotgan tarjimonlarning 4 ta asosiy kamchiligini ko‘rsatib o‘tib, ularga: “barhaq tanlanmagan” (“选择不精”), “aniq farqni ko‘rsatmagan” (“辨别不明”), “jiddiylik bilan yondashmagan” (“态度不严肃”), “ishiga mas’uliyat bilan qaramagan” (“工作不认真”) kabi kamchiliklarni kiritgan. Bu kamchiliklardan forig‘ bo‘lishda, tarjima nazariyasi hamda tarjima tanqidining yaratilishi asos bo‘lib hizmat qilishini aytgan. Shu yilning 1-avgustida “Tarjima habarlarining” 2-sonida, Dong Chiusi “Tarjimadagi tanqid hamda o‘ziga nisbatan tanqidni qanday shakllantirsa bo‘ladi” (“怎样建立翻译界的批评于自我批评”) nomli maqolasida, ilgari tanqidga nisbatan “arzimagan kamchiliklarga ayb topish” (“吹毛求疵”) yoki “kuch belashish” (“打擂台”) sifatida qaralgan bo‘lsa, endilikda, tarjima tanqidiga nisbatan - birinchidan, tarjima obyektni aniqlab olish (分清对象), ikkinchidan, eng muhim qismini topish, uchinchidan, tarjima printsiplarini egallash, to‘rtinchidan, muvaffaqiyatli tajribani tavsiya qilish, beshinchidan, tarjima uslubiga e‘tibor berish, oltinchidan, aniq nazariya yaratish hamda oltinchidan, nutq uslubiga katta e‘tibor berish sifatida qarash kerak bo‘ladi deb yozgan. Dong Chiusi: “Nazariya amaliy tajriba bilimlarining natijasidir. Bizda ming yildan ko‘proq tarjimaning amaliy bilimlari, shu bilan birga tarjima nazariyasining boshlang‘ich asosi mavjuddir. Qadimgi Tan davridagi buddaviylik muqaddas sutralarning tarjimasi to‘g‘risidagi qarashlar, yaqin davrdagi bizdan oldin irod qilgan ustozlar Luxun (鲁迅), Chu Chiubai (瞿秋白) va boshqa tarjimonlarning shu sohadagi qarashlarini bir qilib jamlasak, tartibga keltirsak, rivojlantirsak, bitta yagona tizimni yaratish qiyin ish bo‘lmasa kerak” deb aytgan. [陈福康 2002: 361]

1951-yil 15-aprelida Dong Chiusining “Tarjima habarlari” 4-sonida nashr etgan “Tarjima nazariyasining yaratilishi haqida munozara” (“论翻译理论的建设”) nomli maqolasi, ko‘pchilik tarjimashunos olimlar hamda izlanuvchilar tomonidan yuqori baholanib, aynan bu maqoladagi fikrlarni Xitoyda tarjima nazariyasining yaratilishiga asos bo‘lgan deb e‘tirof etiladi. Bu maqolada Dong Chiusi tarjima nazariyasi sohasidagi qarashlarini tizimga keltirgan holda chuqur ochib bergan. Maqolada Dong Chiusi bergan qarash, taklif hamda mulohazalarni umumlashtirgan holda, uchta eng muhim fikrni ajratib olsak bo‘ladi: tarjima alohida bir mahsus fan ekanligi; tarjima tarixi

hamda tarjimashunoslik fanini yaratish; tarjima nazariyasini yaratish davomida Xitoyning hududiy tajribasiga tayangan holda, horijiy amaliy bilimlarni ham o'zlashtirish. [汪庆华 2011:147]

Tarjima fan yoki san'atmi degan savol G'arb hamda Sharq tarjimasi sohasida juda uzoq davrdan beri munozara qilinadigan muammodir. XX asrning 50-yillaridan boshlab, g'arb olimlari J. Ketford, Volfram Vils va boshqalar tarjima hamda tilshunoslikni mujassamlashtirgan holda, tarjima alohida fan degan hulosa keladilar. Xitoyda XX asrning 50-yillarida aynan Dong Chiusi "tarjima muhsus fan" degan fikrni birinchilardan ilgari surgan. U tarjima nazariyasi haqidagi ikkita qarash, birinchisi, "tarjima bu san'at" bo'lib, u cheklovlardan holi; ikkinchisi esa, "tarjima bu mahorat", uni o'rganib olgandan keyin, hayot davomida qiyinchiliklarsiz qo'llasa bo'ladi degan qarashlarga doimo qarshi chiqib, o'z fikrida, "tarjima bu mahsus ilm (fan)", chunki unda qat'iy rioya qilish kerak bo'lgan qonuniyatlar mavjud, ular har doim ham iste'dod hamda ichki hissiyotlarga suyanmaydi deb aytadi. "Tarjima nazariyasining yaratilishi haqida munozara" ("论翻译理论的建设") maqolasida Dong Chiusi yana bir bor tarjima nazariyasining yaratilishiga bo'lgan ehtiyojning muhimligini asosiy sabablarini ko'rsatib, buni amalga oshirishda kerakli bo'lgan ishlarni bajarish kerakligini aytgan. Lekin, o'sha davrda buni amalga oshirishga ko'pchilikning ishtiyoqi bo'lmagan. Chunki u davrda tarjima sohasida ko'pchilik o'zining qarashlarida qat'iy turib olib, yangi yanoga qarashni qabul qilishni xohlamagan. Tarjima sohasida barcha rioya qiladigan qat'iy norma hamda printsiplar va ularning umumlashgan tizimi mavjud bo'lmagani Dong Chiusi nazarida davrning eng dolzarb muammosi bo'lgan.

Dong Chiusi yangi Xitoy yuzaga kelganidan keyin tarjima nazariyasini yaratish fikrini bildirgani, uning uzoqni ko'ra bilish qobiliyatidan dalolat beradi. Lekin tarixiy vaziyat tufayli uning qarashlari keng miqyosda qo'llab-quvvatlanmadi. Bunday bo'lsada, lekin keyingi o'n yilliklar davomida qilingan tarjima nazariyasi sohasidagi izlanishlar uning qarashlari atrofida rivojlanganligini inkor qilib bo'lmaydi. Tarjimashunoslik sohasida Liu Miching (刘必庆) ning "Hozirgi tarjima nazariyasi" ("现代翻译理论"), Ma Zuyi (马祖毅) ning "Xitoy tarjima tarixi" ("中国翻译史") va boshqa tadqiqotlar natijalari dunyo yuzini ko'rdi. Tarjimashunoslik fan sifatida kechro yuzaga kelgan bo'lsada, lekin 1987-yil Tan Zaixi (谭载喜) Dong Chiusining taklif hamda qarashlarini e'tiborga olganidan keyin, Xitoy tarjimashunoslik sohasida katta siljish yuz berdi. Tarjimashunoslik sohasi asta-sekin horijdan o'rganadigan va tadqiqot markaziga aylandi. Tan Zaixining fikriga ko'ra, Liu Miching 1990-yilda "Hozirgi tarjima nazariyasi" ("现代翻译理论") asarining yaratilishi, Dong Chiusi taklif bergan tarjimashunoslik fanini yaratishdak yuksak vazifaning bajarilishiga, hamda tarjimashunoslikning mustaqil fan sifatida Xitoyda o'z o'rnini egallashiga olib keldi. [汪庆华 2011:148]

ADABIYOTLAR:

1. 孔祥立. 中国翻译学学科建设论 (博士学位申请论文). //上海外国语大学. 2009年5月.
2. 陈福康. 中国译学理论史稿. //上海外语教育出版社. 上海., -2002.
3. 汪庆华. 创承中国译论的“再创作者” – 董秋斯翻译思想研究. //广西社会科学. 2011年第3期, 147-149页.
4. 汪庆华, 银云忠, 李晓兰. 意识形态对董秋斯翻译选材的影响. //语文学刊-外语教育教学. 2010年第11期, 54-55页.
5. 董秋斯. “翻译通报”// 1951年第二卷第四期
6. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.

7. Mirzaxmedova, H. (2020). TERMS MADE FROM THE ORIGINAL IRANIAN VOCABULARY IN PERSIAN. *Philology Matters*, 2020(1), 137-145.
8. AMANOV, K. (2015). THE MATTER OF DIVIDING AGES IN HISTORY OF TURKIC OFFICIAL METHOD. *Turkish Studies (Elektronik)*, 10(12), 57-68.
9. Khalmurzaeva, N. T. (2020). Peculiarities of intercultural understanding in Uzbek and japanese verbal communication. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1473-1481.
10. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
11. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).*